



## FITRAT DRAMATURGIYASIDA SO‘Z VA RAMZ POETIKASI

**Rajabova Maqsuda**

*Xalqaro innovatsion universiteti “Lingvistika (o‘zbek tili)” yo‘nalishi magistranti*

## THE POETICS OF WORDS AND SYMBOLS IN FITRAT’S DRAMATURGY

**Rajabova Maqsuda**

*International Innovation University Master’s degree student in Linguistics (Uzbek language)*

## ПОЭТИКА СЛОВА И СИМВОЛА В ДРАМАТУРГИИ ФИТРАТА

**Раджабова Максуда**

*Международный инновационный университет  
Магистрант направления  
«Лингвистика (узбекский язык)»*



**E-mail:**

[maqsuda.rajabova6784@gmail.com](mailto:maqsuda.rajabova6784@gmail.com)

**Orcid:**

<https://orcid.org/0009-0006-75421-3942>

**Doi:**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17759081>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Abdurauf Fitrat dramaturgiyasida so‘z va ramzlarning poetik tizimi lingvopoetik tahlil asosida o‘rganilgan. Tadqiqotda “Abulfayzxon” dramasiidagi so‘zning dramatik funksiyasi va ramziy qatlamning semantik tuzilishi tahlil qilinadi. Fitrat dramaturgiyasida so‘z nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki milliy o‘zlikni anglash, ma‘naviy uyg‘onish va tarixiy xotirani tiklashning estetik shakli sifatida talqin etiladi. Muallif ramzlar tizimi orqali millat ruhiyatidagi fojialar va uyg‘onish jarayonlarini badiiy tarzda ifodalaydi. Maqolada Fitrat asarlarida so‘z va ramz o‘rtasidagi estetik uyg‘unlik, ularning milliy tafakkur bilan aloqasi tahlil qilinib, dramaturgning o‘zbek adabiy tilini yangilashdagi o‘rni yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Fitrat, dramaturgiya, so‘z poetikasi, ramz, lingvopoetika, milliy uyg‘onish, “Abulfayzxon”, dramatik til.

**Аннотация.** В статье рассматривается поэтическая система слова и символа в драматургии Абдурауфа Фитрата на основе лингвопоэтического анализа. Исследуется драматическая функция слова и семантическая структура символического слоя в пьесе «Абулфайзхон». В драматургии Фитрата слово выступает не только как художественное средство, но и как эстетическая форма осмысления национальной идентичности, духовного пробуждения и восстановления исторической памяти. Через систему символов автор передает внутренние переживания народа и процесс его национального возрождения. В статье также раскрывается эстетическое единство слова и символа и значение Фитрата в развитии узбекского литературного языка.

**Ключевые слова:** Fitrat, dramaturgy, poetics of the word, symbolism, linguopoetics, national awakening, Abulfayzxon, dramatic language.

**Annotation.** This article analyzes the poetic system of words and symbols in Abdurauf Fitrat’s dramaturgy from a linguopoetic perspective. The study focuses on the dramatic function of language and the semantic structure of symbolism in Fitrat’s play “Abulfayzxon.” In Fitrat’s dramaturgy, the word serves not only as an artistic tool but also as an aesthetic form for expressing national identity, spiritual awakening, and historical memory. Through a system of symbols, the playwright reflects the nation’s psychological struggles and revival processes. The article examines



*the aesthetic harmony between word and symbol in Fitrat's works and highlights his contribution to the renewal of the Uzbek literary language.*

**Keywords:** *Фитрат, драматургия, поэтика слова, символ, лингвопоэтика, национальное возрождение, Абулфайзхон, драматический язык.*

### KIRISH VA DOLZARBLIGI

XX asr – boshlarida o‘zbek adabiy tafakkuri yangi uyg‘onish bosqichiga ko‘tarildi. Bu davrda milliy mustaqillik, ma‘rifat va xalq ozodligi g‘oyalari badiiy ijodning markaziy mavzusiga aylandi. Ana shunday murakkab tarixiy sharoitda sahnaga chiqqan Abdurauf Fitrat o‘zbek dramaturgiyasining zamonaviy shakllanishiga asos soldi. Uning dramaturgik merosi o‘z davrining siyosiy va madaniy o‘zgarishlarini aks ettirish bilan birga, til, ramz va so‘zning badiiy imkoniyatlarini chuqur ochib bergani bilan ajralib turadi. Fitrat asarlarida so‘z – bu oddiy aloqa vositasi emas, balki ma‘rifat va ong qurolidir; u orqali muallif millat ruhiy holatini, tarixiy taqdirini, insoniy fojiani ifodalaydi. Ayniqsa, uning “Abulfayzxon” dramasi o‘zbek tilining dramatik ifoda qudratini, tarixiy va ruhiy ramzlar tizimini yorqin namoyon etgan asardir. Mazkur drama tilida so‘zlar faqat ma‘noviy yuk tashuvchi birlik sifatida emas, balki badiiy va semantik o‘zaro munosabatda yashovchi ramzlardir. Fitrat uchun sahnadagi har bir so‘z, har bir dialog – fikrning, g‘oyaning va ichki kurashning timsolidir. “Abulfayzxon” asarida tarixiy voqealarning tashqi bayonidan ko‘ra, ularning ichki mohiyatiga e‘tibor kuchliroq: hukmdor va xalq, imon va xiyonat, adolat va zulm o‘rtasidagi ziddiyatlar so‘zlar tizimi orqali ochiladi. Dramadagi “toj”, “taxt”, “xalq”, “vijdon” kabi so‘zlar ramz darajasiga ko‘tarilib, ular orqali Fitrat o‘z davrining ijtimoiy fojiasini tasvirlaydi. Bu ramzlar nafaqat tarixiy voqealarga ishora qiladi, balki har bir o‘quvchi yoki tomoshabinning ongida milliy o‘zlikni uyg‘otadi. Fitrat dramaturgiyasining lingvopoetik jihatdan qimmatini shundaki, unda til – shunchaki nutq vositasi emas, balki dramatik harakatning o‘zi, so‘z esa obraz yaratuvchi kuchdir. Fitratning poetik tafakkuri Sharq adabiyotidagi ramziy ma‘nolar tizimi bilan G‘arb dramaturgiyasining dialogik an‘analarini uyg‘unlashtiradi. Shuning uchun ham uning sahnasi “so‘z sahnasi”dir – bunda har bir ifoda o‘zining semantik og‘irligi va ruhiy energiyasiga ega. Fitrat so‘zni insoniy vijdonning, imonning, g‘ururning ko‘zgusi sifatida tasvirlaydi; u orqali millatning o‘tmishi, buguni va kelajagi haqida fikr yuritadi. “Abulfayzxon” dramasi tili orqali muallif xalqning og‘rig‘ini, iztirobini va shu bilan birga umidini ifoda etadi. Asarda tarixiy obrazlar orqasida zamonaviy ruh yashiringan bo‘lib, bu hol Fitratning til bilan ramz o‘rtasidagi poetik uyg‘unlikni mukammal tashkil eta olganini ko‘rsatadi. Shunday qilib, Fitrat dramaturgiyasida so‘z – g‘oyaviy qurol, ramz esa ma‘naviy xotiraning ifodasidir; ularning birligida adib millatni



uyg‘otuvchi, insonni fikr va vijdon sari yetaklovchi badiiy kuchni yaratadi. Shu bois Fitrat ijodi, xususan “Abulfayzxon” dramasi, o‘zbek adabiy tilining poetik imkoniyatlarini kengaytirgan, milliy tafakkur tarixida yangi bosqich boshlab bergan nodir namunalardan biri hisoblanadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI.**

Fitrat ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlar o‘zbek adabiyotshunosligi taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, 1960–1980-yillar oralig‘ida Fitrat merosini qayta kashf etish jarayonida bir qator tadqiqotchilar uning dramaturgiyasini tarixiy, badiiy va uslubiy jihatdan tahlil qildilar. Jumladan, M.Qo‘shjonov, N.Karimov, A.Qahhor va I.G‘aniyevlarning tadqiqotlarida Fitrat asarlarining milliy uyg‘onish davrida tutgan o‘rni, ularning ma‘rifatparvarlik yo‘nalishidagi g‘oyalari chuqur yoritilgan. M.Qo‘shjonov Fitratni “tilni badiiyat darajasiga ko‘targan adib” sifatida baholab, uning dramaturgiyasida so‘zning g‘oyaviy yukini alohida ta‘kidlaydi. Shuningdek, N.Karimov Fitrat asarlarida ramzlarning ijtimoiy-falsafiy ma‘nosini tahlil etib, ularni milliy o‘zlikni ifodalovchi asosiy badiiy vosita sifatida ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda olib borilgan lingvopoetik tadqiqotlarda, xususan, Sh.Yusupova va M.Abdug‘aniyevalarning ilmiy ishlari Fitrat dramaturgiyasida so‘z va obraz o‘zaro munosabatini yangi metodologik yondashuv asosida o‘rganadi. Ular Fitrat asarlaridagi semantik strukturalar, metaforik qatlam va ramzlarning ijtimoiy semantikasini tahlil qilish orqali adibning badiiy tafakkuridagi yangi qirralarni ochgan. Shuningdek, B.Nazarov va D.Rahimovlarning Fitrat merosiga oid tadqiqotlarida uning dramatik asarlari o‘zbek sahna tilini shakllantirishdagi o‘rni bilan birga, undagi ma‘naviy kod va tarixiy xotira masalalari ham yoritiladi. Mazkur ilmiy qarashlar umumiy jihatdan Fitrat dramaturgiyasining markazida til va ramz poetikasi yotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarning aksariyati Fitrat dramaturgiyasining lingvopoetik tabiatini to‘liq ochib bermagan; ayniqsa “Abulfayzxon” dramasiidagi so‘zning dramatik funksiyasi va ramziy qatlamning semantik tizimi hali yetarlicha chuqur o‘rganilmagan.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI.**

Mazkur tadqiqotda Fitrat dramaturgiyasini tahlil etishda zamonaviy lingvopoetik yondashuv asosiy metodologik tayanch sifatida tanlandi. Lingvopoetika – adabiy matn tilini, uning semantik, sintaktik va fonetik qatlamlarini estetik mazmun bilan uyg‘un holda o‘rganadigan yo‘nalishdir. Ushbu metod Fitrat matnida so‘zning nafaqat leksik ma‘nosini, balki uning poetik va ramziy funksiyalarini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotda, shuningdek, tarixiy-funksional, struktural va kontekstual tahlil usullari qo‘llanildi. Tarixiy-funksional yondashuv yordamida



“Abulfayzxon” dramasi yaratilgan davrning ijtimoiy-siyosiy sharoiti, muallifning ma’rifatparvarlik pozitsiyasi hamda asardagi ramzlarning tarixiy ildizlari tahlil qilindi. Struktural tahlil esa matnning ichki tuzilmasini, ya’ni ramzlar tizimi, dialoglar dinamikasi, semantik maydonlar o’rtasidagi bog’lanishlarni aniqlashga qaratildi. Kontekstual yondashuv orqali Fitrat dramaturgiyasidagi so‘z va ramzlar boshqa milliy uyg‘onish davri adabiy manbalari bilan qiyosiy tahlil qilindi. Metodologiyaning muhim qismi sifatida semiotik tahlil unsurlari ham qo‘llanildi, chunki Fitrat matnida ramzlar alohida belgilar tizimini hosil qiladi. Masalan, “toj”, “taxt”, “xalq”, “xiyonat” kabi birliklar nafaqat ma’nodosh so‘zlar sifatida, balki belgilar majmuasi – ya’ni milliy o‘zlik va tarixiy xotiraning semiotik timsollari sifatida tahlil etildi. Shu yo‘l bilan tadqiqot Fitrat dramaturgiyasidagi so‘zning poetik vazifasini, ramzning esa falsafiy yukini ochishga qaratildi. Yana bir muhim metod sifatida germenevtik yondashuv tanlandi, u matndagi ramziy obrazlarning chuqur ma’nosini, muallif niyatini va zamonaviy o‘quvchi idrokidagi talqinlarini o‘rganish imkonini beradi. Shu tariqa, ushbu metodologik asoslar Fitratning dramatik matnini faqat badiiy hodisa emas, balki til, tafakkur va milliy ong uyg‘onishining lingvopoetik tizimi sifatida tahlil etish imkonini beradi.

#### **NATIJALAR VA MUHOKAMA.**

Fitrat dramaturgiyasining eng muhim xususiyatlaridan biri – unda so‘zning g‘oyaviy va ma’naviy yukining ustuvorligidir. Adib uchun so‘z faqat estetik ifoda vositasi emas, balki milliy ongni uyg‘otuvchi, jamiyatni o‘ylashga majbur etuvchi qudratli kuchdir. XX asr boshlarida, millat ma’naviy inqiroz va siyosiy turg‘unlik girdobida bo‘lgan bir davrda Fitrat so‘z orqali ozodlik va ma’rifat g‘oyasini ilgari surdi. Ayniqsa, “Abulfayzxon” dramasida bu jihat yaqqol ko‘rinadi – bu asarda so‘z sahna harakatining yuragi, dramatik voqealarning harakatlantiruvchi omiliga aylanadi. Fitrat dramatik dialoglarni shunday tuzadiki, ularda so‘zlar orqali fikrlar to‘qnashadi, qadriyatlar sinovdan o‘tadi va inson vijdoni sinovga tortiladi. “Abulfayzxon” dramatik tilida so‘z – iymon va ongning belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. Hukmdorning, xalqning va ulamolarning nutqi o‘rtasidagi farq, aslida, ijtimoiy tafakkur darajasidagi tafovutni aks ettiradi. Fitrat har bir personajga o‘z dunyoqarashiga mos tildan foydalanish imkonini beradi. Masalan, Abulfayzxonning nutqida hokimlik, mas’uliyat va tavba ohangi mavjud bo‘lsa, xalq vakillarining so‘zida og‘riq, adolat va iztirob seziladi. Shu yo‘l bilan muallif tilni axloqiy va siyosiy mezon darajasiga ko‘taradi. Chunki Fitrat uchun insonni o‘lchaydigan narsa – uning so‘zidagi rostlik, uning fikridagi halollikdir. Shu jihatdan qaraganda, Fitrat dramaturgiyasida so‘z – vijdonning ovozidir. U sahnada jim turadigan obrazni ham



“so‘zlata oladi”, ya’ni personajning ichki kechinmasi, jimlik orqali ham til topadi. Dramada “Men taxtni saqlay olmadim, chunki xalqimdan uzildim”[1.58] degan satr nafaqat hukmdor Abulfayzxonning shaxsiy pushaymoni, balki butun millat nomidan aytilgan e’tirofdir. Bu iqtibos orqali Fitrat so‘zning falsafiy qirrasini ochadi: inson o‘z xalqidan, o‘z tilidan, o‘z haqiqatidan uzilsa – u hukmronlikni emas, insonligini yo‘qotadi. Demak, Fitratning dramatik so‘zi – bu fojia, iztirob va tafakkur uyg‘otuvchi kuchdir.

Fitrat dramaturgiyasida tilning g‘oyaviy kuchi, avvalo, uning sintaktik ixchamligi va semantik chuqurligida namoyon bo‘ladi. Qisqa, lekin keskin dialoglar orqali u butun tarixiy jarayonni ifodalay oladi. So‘zlarning ichki ohangi, intonatsiyasi, hatto pauzalari ham ma’noga xizmat qiladi. Masalan, Abulfayzxonning jim qolishi, xalqning sukunati yoki ulamolarning kinoyali so‘zlari – barchasi bitta dramatik maqsadga yo‘naltirilgan: bu millatning o‘zini o‘zi eslash jarayonini ko‘rsatishdir. Fitrat uchun so‘z – bu uyg‘otuvchi chaqiriq, u “jimlikdan so‘nggi nido”dir. Shu bois u dramaturgiyada so‘zning kuchini tarixiy mas’uliyat bilan bog‘laydi. Fitrat dramaturgiyasida so‘z nafaqat individual, balki kollektiv ongni ifodalaydi. Uning qahramonlari orqali butun xalqning ovozi yangraydi. Shu jihatdan, Fitrat sahnasi milliy o‘zlikni so‘z orqali qayta tiklash maydonidir. “Abulfayzxon”da har bir so‘z, har bir ibora millatning o‘tganini eslatadi, hozirini tanqid qiladi va kelajakni ko‘rsatadi. Natijada Fitratning dramatik tili badiiylilikdan tashqari, ma’rifat va ijtimoiy uyg‘onishning qudratli vositasiga aylanadi. U sahnada so‘z orqali insonni o‘zgartirish, millatni uyg‘otish, tarixni eslatish imkonini topadi. Shu bois Fitrat dramaturgiyasida so‘z – bu nafaqat estetik hodisa, balki ruhiy va siyosiy uyg‘onishning asosiy omilidir.

Fitrat dramaturgiyasida ramz (simvol) poetikasi milliy tarixning fojiali sahifalarini badiiy shaklda ifodalashning asosiy vositasiga aylanadi. Uning asarlarida ramzlar orqali nafaqat individual obrazlarning ichki kechinmalari, balki xalqning ma’naviy iztiroblari, tarixiy o‘zligini yo‘qotish jarayoni ham ochib beriladi. Ayniqsa, “Abulfayzxon”, “Hind ixtilolchilari”, “Chin sevish” kabi dramalarda ramziy tafakkur siyosiy zulm, ruhiy inqiroz va milliy uyg‘onish g‘oyalarini ifodalovchi badiiy kod sifatida namoyon bo‘ladi. Fitrat ramzlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’noda emas, balki metaforik tizim sifatida qo‘llaydi – ular orqali muallif tarixiy hodisalarning zamonaviy mazmunini ochib beradi. Masalan, “Abulfayzxon” dramasi xon saroyi – ramziy jihatdan o‘zining ma’naviy ildizlaridan uzilgan, tanazzulga yuz tutgan jamiyatni ifodalaydi. Shu orqali muallif tarixiy fojeani xalq ruhiyatidagi qulashi bilan uyg‘unlashtiradi. Tadqiqotchi A.Qosimov ta’kidlaganidek: “Fitrat



ramzlarni voqelikni yashirish uchun emas, balki uni badiiy umumlashtirish vositasi sifatida ishlatadi; ramz orqali tarixiy haqiqatning ichki mohiyati ochiladi”[2.64] Fitrat dramaturgiyasidagi ramzlar tizimi tarixiy fojiani shunchaki qayta hikoya qilmaydi, balki uni milliy o‘zlikni anglashning ramziy shakliga aylantiradi. Bu jarayonda ramzlar – xalqning yo‘qotilgan mustaqilligi, axloqiy inqirozi va ruhiy uyg‘onish istagini birlashtiruvchi badiiy omil sifatida xizmat qiladi. Shu tariqa, Fitrat o‘z dramaturgiyasida tarixiy fojiani individual fojiaga, individual fojidan esa umumxalq ruhiy kechinmasiga ko‘taradi.

Fitrat dramaturgiyasining badiiy qudrati, avvalo, uning dialogik tuzilishida namoyon bo‘ladi. Muallif sahna nutqini faqat dramatik harakat vositasi sifatida emas, balki milliy tafakkur, ijtimoiy ong va ma’naviy uyg‘onish ifodasi sifatida talqin qiladi. Fitratning dialoglari tashqi suhbat shaklida bo‘lsa-da, ular ichki monologik ma’no qatlamlarini ham o‘z ichiga oladi. Shu bois, uning asarlaridagi til – faqat kommunikativ emas, balki falsafiy va ruhiy mazmun tashuvchi badiiy tizimdir. Fitrat qahramonlarining nutqida xalqona ifodalar, diniy-axloqiy terminlar, turkiy va arabiy so‘z qatlamlarining uyg‘unligi kuzatiladi. Bu uyg‘unlik til va tafakkur birligini, ya’ni milliy o‘zlikni ifodalovchi ichki uyg‘unlikni vujudga keltiradi. Masalan, “Hind ixtilolchilari” dramasi qahramonlarning bahsli dialoglari tashqi jihatdan siyosiy mojaro sifatida kechsa-da, ularning har bir so‘zi ozodlik, e’tiqod va ma’rifat singari g‘oyaviy tushunchalar atrofida shakllanadi. Shu tarzda, Fitrat dialogni falsafiy fikr yuritishning asosiy maydoniga aylantiradi. Tilning bu badiiy-falsafiy xususiyatini tadqiqotchi N.Jo‘rayev quyidagicha izohlaydi: “Fitratning sahna asarlarida dialog – bu ikki shaxsning suhbatidan ko‘ra kengroq mazmun kasb etadi; u orqali yozuvchi xalq tafakkurining uyg‘onish bosqichlarini poetik tarzda aks ettiradi”[4.112] Fitratning dialogik uslubi dramatik ziddiyatni tabiiy tarzda rivojlantiradi. Qahramonlar o‘rtasidagi so‘z almashinuvi orqali nafaqat voqea dinamikasi, balki fikrlar to‘qnashuvi, dunyoqarashlar sintezi ham yuz beradi. Shu jihatdan, Fitrat dramalarida til – milliy tafakkurning badiiy shakli, dialog esa – ma’rifatparvarlik g‘oyalarining estetik ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Fitrat dramaturgiyasida so‘z va ramz o‘zaro estetik uyg‘unlikda faoliyat yuritadi. U so‘zni nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki ma’naviy ramzlarning tashuvchisi, fikrning estetik shakli sifatida talqin qiladi. Fitrat dramatik nutq orqali ramzga ruh, ramz orqali esa so‘zga falsafiy mazmun bag‘ishlaydi. Shu tariqa, uning asarlarida so‘z va ramz o‘rtasida dialektik bog‘liqlik yuzaga keladi – biri ikkinchisini to‘ldiradi, chuqurlashtiradi va badiiy yaxlitlikni ta’minlaydi. Fitratning “Abulfayzxon” dramasi bu uyg‘unlik ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi.



Qahramonlarning soʻzida ishlatilgan “toj”, “taxt”, “saroy”, “zanjir” kabi leksik birliklar bevosita ramziy maʼno kasb etadi. “Toj” – hokimiyat timsoli sifatida, “zanjir” esa qullik va jaholatning belgisi sifatida qoʻllanadi. Bunda Fitrat ramzni bevosita maʼnoda emas, soʻzning ichki semantik energiyasi orqali ifoda etadi. Har bir dramatik soʻz, shu tariqa, ramzga aylanadi; har bir ramz esa soʻzning badiiy kuchini oshiradi. Fitratning estetik mahorati shundaki, u soʻz va ramz uygʻunligini milliy tafakkur va maʼrifatparvarlik gʻoyalari bilan bogʻlaydi. Muallif dramatik obrazlar tilini xalqona soʻz boyligi, diniy-falsafiy istilohlar va turkiy ifoda uslublari bilan uygʻunlashtiradi. Natijada soʻz – ramzga, ramz – soʻzga aylangan murakkab estetik tizim yuzaga keladi. Tadqiqotchi M.Yoʻldoshev taʼkidlaganidek: “Fitrat dramaturgiyasida soʻzning badiiy kuchi ramz bilan uygʻunlashgan holda shakllanadi; bu uygʻunlik sahna asarlarining estetik taʼsirchanligini oshiruvchi asosiy poetik tamoyildir”[4.87]. Shunday qilib, Fitrat dramaturgiyasida soʻz va ramz oʻrtasidagi estetik uygʻunlik dramatik asarning ichki ohangdorligini, badiiy qatlamlar chuqurligini va muallifning falsafiy niyatini mujassam etadi. Bu uygʻunlik oʻzbek sahna sanʼatida soʻz orqali ramz, ramz orqali tafakkur ifodasi anʼanasini shakllantirgan eng muhim bosqichlardan biri sifatida baholanadi.

Fitrat dramaturgiyasi oʻz davri uchun nafaqat badiiy, balki madaniy-maʼrifiy tajriba sifatida ham alohida ahamiyatga ega boʻlgan. Uning sahna asarlari orqali til, tafakkur va milliy oʻzlik oʻrtasidagi bogʻliqlik yangi bosqichda namoyon boʻladi. Fitrat millatni uygʻotish yoʻlida soʻz sanʼatini asosiy qurol sifatida tanlagan; u tildan faqat ifoda vositasi sifatida emas, balki milliy ongni shakllantiruvchi kuch sifatida foydalangan. Fitratning dramatik tili – uygʻonish davrining maʼnaviy manzarasidir. Unda xalq tili, diniy-falsafiy soʻz boyligi va zamonaviy maʼrifat tili oʻzaro sintezga kirishadi. Shu jihatdan, uning dramaturgiyasi millat tafakkurining til orqali oʻzini anglash bosqichini aks ettiradi. Masalan, “Chin sevish” dramasida muhabbat mavzusi orqali insoniy qadriyatlar, ijtimoiy erkinlik va maʼnaviy yangilanish gʻoyalari ifodalansa, “Hind ixtilolchilari”da ozodlik uchun kurash tili milliy oʻzlikning ramziga aylanadi. Fitrat tili – uygʻonish davrining ruhiy hujjati sifatida qaraladi. Undagi har bir soʻz, ramz va dialog milliy oʻzlikni anglash jarayonining lingvopoetik ifodasidir. Tadqiqotchi Sh.Sodiqov bu holni quyidagicha izohlaydi: “Fitratning sahna tili xalq ruhiyatining uygʻonish energiyasini oʻzida mujassamlashtiradi; u til orqali milliy tafakkur va maʼnaviyatning yangi pogʻonasini shakllantiradi”[5.59] Fitrat dramaturgiyasining tili milliy uygʻonishning badiiy tajribasi boʻlib, u oʻzbek adabiy tilining taraqqiyotida ham muhim bosqich yaratdi. Bu tilda ramz va soʻz birlashib, millat ruhining ifodasiga aylandi; badiiy soʻz esa xalq tafakkurining uygʻonish



manbaiga aylandi. Shunday qilib, Fitrat dramaturgiyasi milliy tilning ma'naviy uyg'onishdagi faol estetik shakli sifatida tarixda o'z o'rnini mustahkamladi.

### **XULOSA.**

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Fitrat dramaturgiyasi o'zbek adabiy tafakkurida so'z va ramz poetikasini yangi bosqichga olib chiqqan murakkab estetik tizimdir. Muallif dramatik asarlarida so'zni faqat sahna vositasi sifatida emas, balki milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va ma'naviy uyg'onishning badiiy ifodasi sifatida talqin etadi. Ramzlar tizimi orqali tarixiy fojialar xalq ruhiyati bilan uyg'unlashtiriladi, dialoglarda esa tafakkur va til birligi badiiy-falsafiy mazmun kasb etadi. Fitratning dramaturgik tajribasi, bir tomondan, so'zning ma'naviy qudratini ochib berib, o'z davrining ijtimoiy-ruhiy muhitini aks ettirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, milliy uyg'onish g'oyalarining til orqali ifoda topgan shakli sifatida qadrlanadi. So'z va ramzning estetik uyg'unligi uning asarlarida millat ruhining badiiy ko'zqusini yaratadi. Natijada, Fitrat dramaturgiyasi o'zbek adabiy jarayonida so'zning falsafiy teranligi, ramzning poetik kuchi va milliy tafakkurning uyg'onish ruhini birlashtirgan noyob hodisa sifatida baholanadi. Bu jihatdan Fitrat ijodi nafaqat XX asr o'zbek dramaturgiyasining, balki butun o'zbek madaniy-ma'naviy uyg'onishining asosiy poydevorlaridan biri hisoblanadi.

### **Adabiyotlar:**

1. Fitrat A. Asarlar. 2-jild. – Toshkent: Fan, 1990. – 432 b.
2. Qosimov A. O'zbek dramaturgiyasi taraqqiyoti masalalari. – Toshkent: Akademiya nashri, 2018. – 176 b.
3. Jo'rayev N. Fitrat dramaturgiyasi poetikasi. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti, 2020. – 210 b.
4. Yo'ldoshev M. XX asr o'zbek dramaturgiyasi poetik tizimi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2019. – 198 b.
5. Sodiqov Sh. Fitrat merosi va uyg'onish davri poetik tafakkuri. – Toshkent: Ma'naviyat, 2021. – 156 b.
6. Mirzayev U. O'zbek adabiyotida ramz va timsollar poetikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 167 b.
7. Abdug'afurov A. O'zbek dramaturgiyasi tarixi va nazariyasi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2015. – 204 b.
8. Aliev H. Fitrat dramaturgiyasida til va tafakkur uyg'unligi // O'zbek tili va adabiyoti. – 2020. – №3. – B. 54–62.
9. Rasulov D. XX asr o'zbek adabiyoti: G'oya va shakl izlanishlari. – Toshkent: Fan, 2022. – 232 b.